



**INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA IMKONIYATI
CHEKLANGAN BOLALARNING O'RNI**

Namangan shahar 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining maxsus

Maxsus pedagog o'qituvchisi

Satimova Marhabo Adhamovna.

marhabotojiboyeva989@gmail.com

94 158 61 65

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishida imkoniyati cheklangan bolalarning tutgan o'rni, ular uchun yaratiladigan pedagogik, psixologik va ijtimoiy sharoitlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish mexanizmlari hamda bu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosati va xalqaro hujjatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchilar tayyorgarligi, maxsus pedagogik yondashuvlar va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik inklyuziv ta'limning barqaror rivojlanishida asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, maxsus pedagogika, integratsiya, adaptatsiya, inkluziv muhit, pedagogik yondashuv, ta'lim siyosati.

Аннотация

В статье рассматривается роль детей с ограниченными возможностями в развитии инклюзивного образования, а также значимость создания педагогических, психологических и социальных условий, способствующих их успешной интеграции в образовательный процесс.





Анализируются основные принципы инклюзии, механизмы внедрения инклюзивных практик, государственная политика и международные нормативные документы. Особое внимание уделяется профессиональной подготовке педагогов, специализированным методам обучения и развитию социального взаимодействия среди учащихся.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, специальная педагогика, интеграция, адаптация, инклюзивная среда, педагогические подходы, образовательная политика.

Abstract

This article examines the role of children with disabilities in the development of inclusive education and emphasizes the importance of creating pedagogical, psychological, and social conditions that support their successful integration into mainstream schooling. The study analyzes the core principles of inclusion, mechanisms for implementing inclusive practices, as well as national policies and international frameworks that promote inclusive education. Teacher preparedness, specialized instructional approaches, and social interaction among students are highlighted as key factors contributing to the sustainable development of inclusive education.

Keywords: inclusive education, children with disabilities, special pedagogy, integration, adaptation, inclusive environment, pedagogical approaches, education policy.

Kirish

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishi nihoyatda yuqori e'tiborni talab qiluvchi umumta'lim tizimining sohasi hisoblanib, imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatning ijtimoiy qatlamidir, chunki ularning ko'pchiligi kam ta'minlangan oilalarda voyaga yetganlar. Inklyuziv ta'lim –



bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'pchilik bolalar uchun amalga oshiriluvchi ta'lim tadbirlariga jalb etishdir. Shundagina biz imkoniyati cheklangan barcha bolalarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishimiz mumkin. Maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida respublikamizda ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi bandlar kiritilgan. Bundan tashqari, zamonaviy maktablarni qurishda ushbu maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo'lishi va jihozlanishini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha zamonaviy maktabga qo'yiladigan me'yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi.

Mana shu maqsadda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 13.10.2020-yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar qatorida umumta'lim maktablarida o'qitish amaliyotini rivojlantirish maqsadida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning umumta'lim maktablariga integratsiyalashuvi (uyg'unlashtirgan holda ta'lim-tarbiya berish) tajribasi qo'llanilishi natijasida so'ngi yillarda 500 nafarga yaqin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablariga qaytarildi. Hozirgi kunda 3,2 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan. Amalga oshirilgan ma'lum bir darajadagi yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo'lgan muammolar ham mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: salbiy munosabat; hamjamiyatda ko'rinmaslik; moddiy mablag'-muammolari; jismoniy moslashtirish; sinfdagi o'quvchilar soni; qaramlik; jinsiy belgilarga qarab kamsitish; favqulodda vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar.

Shulardan birinchisi salbiy munosabat muammosiga to'xtaladigan bo'lsak bu holat maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim muassasalarida tizimida ta'lim-tarbiya olishlari uchun eng katta to'siq bo'lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a'zolari, o'qituvchilar, umumta'lim muassasalarida hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o'zlaridagi umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya olishlariga nisbatan qashiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto'g'ri fikr, ular to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o'sganligi va boshqalardir. Hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko'pincha ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalar tomonidan qattiq bekitiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko'rsatmaydilar, ro'yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to'g'risida hech bir ma'lumot berilmaydi. Natijada ko'plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo'ladilar. Ular to'g'risida

hech bir ma'lumotni bo'lmasligi ta'lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi. Moddiy mablag' muammolari.

Jahon miqiyosida ko'pgina davlatlarda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qitish juda qimmatga tushadi,- deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish masalasini hal qilmaydilar. Jismoniy moslashtirish masalasi har bir davlatda mavjud bo'lib, bu mammo asosida maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga qatnashi masalasi yetadi. Maxsus ehtiyojli bola maktabga kelgandan so'ng u ko'plab muammolarga duch keladi, masalan, binoning ichkarisiga kirish, xonalar bo'ylab harakatlanish, hojatxonaga borish va hokazolar. Inklyuziv ta'limda jismoniy xavsizlik va qulaylik muhimdir. Sinfdagi o'quvchilar soni muammosiga keladigan bo'lsak, sinfdagi o'quvchilar sonining ko'pligi ko'plab davlatlarda maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuzivlikka to'sqinlik qiladi.

Rivojlangan davlatlarda har bir sinfdagi bolala soni 30 tadan oshmaydi. Ammo rivojlanishdan orqada qolgan davlatlarda esa bir sinfda 60-100 nafar bolaning o'qishi oddiy holdir. Qaramlik muammosi-ya'ni bunda maxsus ehtiyojli bolalarning ko'pchiligini doimiy ravishda boshqalar ko'magiga muhtojligi nazarda tutiladi. Jinsiy belgilarga qarab kamsitish muammosi oqibatida ta'limda o'g'il bolalar va qiz bolalarning teng munosabatda bo'lmasligi kuzatiladi. Favqulodda vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar. Favqulotta vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar nafaqat nogironlik sababchisi, balki, maxsus ehtiyojli bolalarning zaifligini yanada chuqurlashtirishga sabab bo'ladigan omildir. Jahon miqiyosida esa hanuzgacha bu muammoning yechimlari topilganicha yo'q.

Xulosa qiladigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim borasida, balki bolalarning ma'naviy va jismoniy o'sishlari, shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir, maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida

respublikamizda ko'zga ko'rinarli ishlar qilinmoqda. Olib borilayotgan ishlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar ta'limga jamoatchilik tashkilotlarining munosabati o'zgardi, ota-onalarning bolalariga e'tibori ortdi, ta'lim olishlari uchun qiziqishlari yanada ortdi. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim mussasalariga jalb etish, integrasiya asosida ta'limni tashkil etishning o'ziga xos muammolari va qiyinchilaklari bo'lsada u barcha mintaqalarda rivojlanib bormoqda, bu esa imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishning noan'anaviy shakllarini tashkil etishga harakat qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 13.10.2020 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori.
2. Muzaffarova X.N. Inklyuziv ta'limning muammolari va istiqbollari// Xalq ta'limi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali 2014-yil 3-son.
3. Muzaffarova X.N., Tursunqulova O. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish masalalari// zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'rnini nomli respublika ilmiy amaliy konferentsiyasi 20.06. 2021yil
4. Nurmuhammedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped.fan.nomz...diss. – Toshkent, 2005. – 156 b.
5. Rustamov.S. Inklyuziv sinflarda oilalar bilan ishlash va ular o'rtasidagi hamkorlikning o'ziga xosligi.
6. Ture Yonsson. Inklyuziv ta'lim. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Yunesko xalqaro tashkiloti. Opereyshen Mersi Xalqaro Tashkiloti, Respublika ta'lim markazi.–T.:ilmiy jurnal. Toshkent, 2002. - №1-2.
7. Shoumarov G'.R.Shomahmudova, L.Mo'minova, H.Kalbaeva va boshqalar —O'zbekiston Respublikasida Inklyuziv ta'lim kontsepsiyasi Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fondi, T., 2009.
8. Shomahmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta'lim. Xalqaro va milliy tajribalar. Uslubiy qo'llanma.Toshkent. —Chashma printl 2011. -213 b

